



## **TO STUDY THE PROCESSES OF GIVING FLAMMABLE PROPERTIES TO FABRICS**

**M.S.Sunnatullayeva<sup>1</sup>, I.A.Nabiyeva<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>Tashkent Institute of Textile and Light Industry  
M9-20 group master's student, <sup>2</sup>Scientific adviser prof.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5502089>

### **ARTICLE INFO**

Received: 01<sup>st</sup> September 2021  
Accepted: 05<sup>th</sup> September 2021  
Online: 10<sup>th</sup> September 2021

### **KEY WORDS**

*fuel, fire retardant, temperature, research.*

### **ABSTRACT**

*The article provides information on the processes of studying the flammability of tissues and antipyretic properties that protect tissues from inflammation. Based on the analysis, the interaction of substances in the composition, its resistance to different temperatures is studied. The continuation of scientific research in this area and the creation of new compositions, as well as their application in various sectors of the economy, will bring great economic benefits to the republic.*

## **Matolarga olovbardoshlik xossasini berish jarayonlarini o'rganish.**

**M.S.Sunnatullayeva<sup>1</sup>, I.A.Nabiyeva<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>Toshkent To'qimachilik va Yengil Sanoat Institut  
M9-20 guruh magistratura talabasi, <sup>2</sup>Ilmiy raxbar prof.

### **MAQOLA TARIXI**

Qabul qilindi: 01-sentabr 2021  
Ma'qullandi: 05- sentabr 2021  
Chop etildi: 10- sentabr 2021

### **KALIT SO'ZLAR**

*Olovbardosh, yonuvchanlik, antipiren, harorat, tadqiqot.*

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada matoning olovbardoshlik xususiyatini o'rganish jarayonlari va matoning yonuvchanlik xususiyatidan saqlaydigan antipiren xossalari haqida ma'lumotlar keltirilib o'tilgan. Ko'rib chiqilgan taxlillarga asoslanib, kompozistiya tarkibidagi moddalarning o'zarotasi, uning turli haroratlardagi chidamliligi o'rganiladi.*

So'nggi yillarda yurtimizda to'qimachilik sohalari jadal rivojlanmoqda. Bu esa talabni oshiradi. To'qimachilik materiallariga olovbardoshlik xossalarini berish masalalariga esa alohida e'tibor qaratilmoqda. To'qimachilik materiallari yong'in vaqtida xavfli manba hisoblanadi, chunki yonish jarayoniga yordam beradi.

Natijada kata miqdordagi tutun va gazlarni chiqaradi. Mato yonganda uning alngasi atrofga tarqalishiga to'sqinlik qiluvchi antipiren eritmalar bilan ishlov berish olovbardosh pardozlash (yong'indan himoyalovchi ishlov berish) deb yuritiladi. Tabiiy tolalarning barchasi va kimyoviy tolalarning ayrimlari alanga ta'sirida



yonadi, ayrimlari esa suyilib, so'ng yonadi yoki suyulmay yonadi, qolganlari oldin cho'g'lanadi, so'ng ko'mirga aylanadi.

Tolalarning yonishi ularning tabiatiga bog'liq. Agar yonishdan ajraladigan energiya tolali materiallarning alangalanishiga sarflanadigan energiyalar yig'indisig teng yoki undan ortiq bo'lsa, qizdirish ta'sirida tola o'z-o'zidan o't oladi, ya'ni yonadi. Yonish va alangalanishiga energiyalarining o'zaro nisbati birdan kichik bo'lishiga ta'sir etuvchi moddalar antiperin moddalari deb yuritiladi.

Gazlamalarga olovbardoshlik xossalarini berishni ikki xil pardoz usuli bor .

1. Gazlamani alangalanmaydigan holda keltiradigan pardoz.
2. Gazlamani yong'inga chidamliliginibutunlay oshiradigan pardoz.

Birinchi usul dekorativ matolarga parda, shtor mebel uchun gazlamalar,bolalar kiyimlari va shu kabi gazlamalarda qo'llaniladi.

Ikkinci usul esa o't o'chiruvchilar kiyimlari, payvandchilarni maxsus kiyimlari uchun ishlatiladigan gazlamalarga ishlov berish usuli hisoblanadi.

Yonishga qarshi ishlov berishning barcha tolalar uchun universal usuli yo'q, faqat ishlov beriladigan gazlamaning xususiyatinihisobga olgan holda yonishga qarshi ishlov berish turi tanlansa yaxshi natija olinadi.

Tabiiy tolalar ko'pincha sun'iy tolalarning tarkibi sellyulozadan iborat bo'lgani uchun sellyuloza tarkibli tolalarga yonishga qarshi ishlov berish katta ahamiyatga ega. Bu tolalarda antipirenlar adsorbsiya kuchlari bilan ushlab turishi mumkin yoki tolani

kimyoviy modifikatsiyalab antipirenning sellyulozaning funksional guruhlari bilan biriktirib qo'yishi mumkin.

Sellyuloza tolasi barcha tolalar Ichida alangananish ta'siriga ea bo'lgan eng tez yonuvchi tola hisoblanadi. Sellyuloza tolalarini fosfor kislotasi va tarkibida azot bo'lgan birikma (mochevina, ditsiandiammid, ammiak va boshqalar.) aralashmasi bilan eterifikatsiyalab, unga olovbardoshlik xossasini berish mumkin. Tarkibida azot bo'lgan birikmalar tolani eterifikatsiyalash chog'ida uning pishiqligiga deyarli ta'sir qilmaydi.

Olovbardoshlilik xossasini berish uchun qo'llaniladigan birikmalar va ishlov berish jarayonlarining shart-sharoitlari tolaning pishiqligiga salbiy ta'sir etadi, ho'l ishlov berishlarga (sovunli soda eritmasi bilan yuvish, kimyoviy tozalash) turg'un bo'lmaydi.

Sellyuloza tolasidan to'qilgan matolar eng oson va tez alanganadi, ko'p sintetik tolalar qizdirilganda qisqaradi va eriydi ammo yoqilgandan keyin ular juda qattiq yonadi. Hozirgi vaqtda turli xil talablar qo'yiladigan texnik maqsadlar uchun to'qimachilik materiallari ko'proq qiziqish uyg'otmoqda, ulardan biri yong'indan himoya qilishdir. Paxta tolalari asosida olingan materiallarga chet el va mahalliy appretlar asosida olovbardoshlik xususiyatini berish jarayonlarida ularning bir-biridan farqi alanganishga chidamliligi, ishlov berilganda materialga tasiri, yuvishga chidamliligi har bir jarayonlari alohida o'rganildi va hozirda ham shu bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar davom etmoqda.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Z. Abdukarimova, A.L.Hamroyev, A.A.Miratayev "Tolali materiallarni pardozlash kimyoviy texnalogiyasi" Toshkent. "Mehnat" 2004 yil
2. Matmusayev.U.M va boshqalar "To'qimachilik materialshunosligi" 1-qism To'qimachilik mateiallarining olinishi, O'zbekiston 2005yil
3. Г.С.Грановский.А.П. Мшвениерадзе «Строение и анализ тканей» Москва «Легпрамбыт здат» 1988г
4. Р.Т.Bukayev "Ip gazlamalar ishlab chiqarishning texnalogiyasi" Toshkent "O'qituvchi" 1984 yil.
5. Г.З.Кричевский, М.В.Корчагин, А.В.Сенахов «Химическая техннология текстильных материалов» Москва «Легпрамбыт здат» 1985г
6. Abbasova N.G. Abdullayev A.Z "Kiyim materiallarining turlari haqida umumiy tushunchalar " G:TTESI, 1992 yil
8. Кукин.Г.Н, Соловьев А.Н «Текстильное материаловедение» Москва «Легпрамбыт здат» 1985г
9. Тихомиров В.Б «Нетканые клееные материалы»
10. Папков.С.П. «Физик-химическая основы производства искусственных и синтетических волокон» Москва Химия 1972г